

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMiy TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZIRIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01
RAQAMLI ILMiy KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

MENGLIQULOV XAYRULLA ALIQULOVICH

**TA'LIM JARAYONIDA 9-10 YOSHDAGI O'QUVCHILARNING JISMONIY
TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI
(suzish o'quv mashg'ulotlari misolida)**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление диссертации доктора философских наук (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents abstract dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)
in pedagogical sciences**

Mengliqulov Xayrulla Aliqulovich

Ta'lim jarayonida 9-10 yoshdagi o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini shakllantirish metodikasi 3

Менгликулов Хайрулла Аликулович

Методика формирование физической подготовленности школьников 9-10 лет в процессе обучения 25

Menglikulov Khayrulla Alikulovich

Formation of physical fitness of schoolchildren under 9-10 years in the learning process. 49

E'lon qilingan ishlar ro'yhati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZIRIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

MENGLIQULOV XAYRULLA ALIQULOVICH

**TA'LIM JARAYONIDA 9-10 YOSHDAGI O'QUVCHILARNING JISMONIY
TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI
(suzish o'quv mashg'ulotlari misolida)**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Ped7087 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifacida (www.tersu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Komil Burxanovich Muxammadiev
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xudoyqulov Xol Jumayevich
pedagogika fanlari doktori, professor
Yakubov Fazliddin Muxitdinovich
pedagogika fanlari bo‘icha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01. raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, faks:(0-370) 717-17-76, Veb-sayt: www.v.uzdjtsu.uz, e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz. O‘zbekiston davlat jism oniy tarbiya va sport universiteti “B” binosi, 2-qavat, Ilmiy Kengash majlislar zali).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jism oniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, faks:(0-370) 717-17-76, Veb-sayt: www.uzdjtsu.uz, e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “_____” kuni tarqatildi.

(2024-yil «_____» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

F.A. Kerimov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor.

X.X. Qurbonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, p.f.b.f.d. (PhD)

O.J. Dadaboyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
p.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ta'lim tizimi sub'ektlari faoliyatini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, ularni intellektual jihatdan taraqqiy etgan, ma'naviy barkamol, jismonan sog'lom shaxs sifatida voyaga yetkazish muammosiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayoni natijaviyligiga aloqador bo'lgan modellarni (functional education, competence-based approach, competence model, health education) texnologik rivojlanish g'oyalari bilan integratsiyalash hamda ularning samaradorligini ta'minlash birlamchi amaliy ahamiyatga ega bo'lmoqda. Shu jihatdan, inson salomatligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashtirish, yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish, o'quvchilarda jismoniy tayyorgarlikni shakllantirish orqali valeologik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyat mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyati ortmoqda.

Dunyoda maktab ta'limining tobora rivojlanib borayotganligi maktab ta'lim jarayonida 9-10 yoshdagi o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini shakllantirish metodikasiga kiritilayotgan o'zgartirishlar va o'quvchilarning raqobatbardoshligini kuchayishi ularning dastlabki jismoniy tayyorgarlik bosqichidan tortib oliy sport mahorati bosqichigacha bo'lgan tayyorgarlik jarayonini boshqarishning tashkiliy va uslubiy jihatlarini tadqiq qilish, ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarini tuzish, mashg'ulotlar samaradorligini oshirish yo'llarini izlab topishni talab etmoqda. Suzish sporti orqali o'quvchilardan yuqori sport natijalariga erishishlarining o'sib borishi asosiy omillaridan biri suzush sporti bilan shug'ullanuvchi o'quvchilarning boshlang'ich tayyorgarligi bosqichlarini optimal tuzish va uni tizimli boshqarish hisoblanadi. Darhaqiqat, suzush sporti bilan shug'ullanuvchi o'quvchilarni tayyorlashda o'quv-mashg'ulot jarayonini rejalashtirish bilan birga, ularning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini baholash, sportda erishgan natijalari faoliyatini nazorat qilish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borish katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois suzush bilan shug'ullanuvchi o'quvchilarda tayyorgarlik jarayonini tuzish uslublarini ishlab chiqish, tajribalar o'tkazish va mashg'ulot jarayonini samarali tashkillashtirish, tayyorgarlik bosqichlarida mashg'ulot yuklamalari hajmi va shiddatini optimal rejalashtirish yuzasidan tadqiqotlar olib borish dolzarbligicha qolmoqda.

Mamlakatimizda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham "yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash"¹ maqsad qilinganligi ham mamlakatimizda o'quvchilarni aqliy va ruhiy salohiyatidan oqilona foydalanish zaruratini asoslaydi. Bu borada maktab ta'limida o'quvchilarning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish asosida ularning jismoniy irodasi, matonati, sabri va shijoatini ijtimoiy rivojlanish uchun yo'naltirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Buning uchun maktablarda jismoniy tarbiya darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilar

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022 yil 28 yanvar «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmmi. // lex.uz.

ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga doir bilimlarni rivojlantirish yo'naltirilgan innovatsion metodikalarni kiritish ehtiyoji yuzaga kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni², O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2018-yil 22-yanvardagi PF-5308-son "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2019-yil 31-dekabrda VM-1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasini tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari hamda boshqa me'yyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bolalarning shaxs sifatida shakllanishi hamda o'sishidagi muhim vositalardan biri sifatida jismoniy tayyorgarlik ko'nikmasining ahamiyati barcha millat va davrning buyuk siymolari va mutafakkirlarining monografik asarlaridalarida alohida ta'kidlab kelingan. Zamonaviy pedagogikada jismoniy tayyorgarlik malakaning shakllanish muammosini O'zbekistonda F. Xo'jaev, O'. Matnazarov, A.G'. Sodiqov, M. Mo'minova, M. Bekqulova, M.J. Abdullaev, F.A. Tashpulatov, I.S. Islomov, R.R. Salimgarieva, B.O. Rustamovlarning³ tadqiqot ishlrida o'z ifodasini topgan.

MDH davlatlari olimlari D.A.Kiknadze, N.D.Levitov, V.A.Rodionova, A.I.Kochetov, A.G.Kovalev, B.A.Ashmarin, M.S.Taychinov, N.A.Fomin, V.P.Guba, V.A.Bikov, E.N.Stepanov, L.M.Luzina, I.S.Barchukovlar⁴ o'rgananganlar.

² O'zbekiston Respublikasining 2020 -yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 06/20/6099/1450-son).

³ Xo'jayev F. O'zbekistonda jismoniy tarbiya. – Toshkent, 1997. – 183 b. Matnazarov O'. Suzish va uni o'qitish metodikasi. – UrDU noshirlik bo'limi, 2010. – 72 b. Sodiqov A. G'. Yosh suzuvchilarning tayyorgarlik bosqichlarida mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 202 b. Mo'minova M., Bekqulova M. Yurishdan avval suzish. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Yangi asr avlod nashriyoti, 2015. – 88 b. Abdullayev M. J., Tashpulatov F. A. Suzish va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Sano-standart nashriyoti, 2018. – 202 b. Abdullayev M. J., Tashpulatov F. A. Suzish va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Sano-standart nashriyoti, 2018. – 202 b. Islomov I.S., Salimgarieva R.R. Yakka kurash, koordinatsion va siklik sport turi (suzish). O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 232 b. Sodiqov A.G', Rustamov B.O. Suvi polosi. O'quv dasturi. – Toshkent, 2019. – 68 b.

⁴ Кикнадзе Д.А. Потребности. Поведение. Воспитание. – М.: Знание, 1968. – С. 46-56. Левитов Н.Д. Психология подростка и воспитание его в семье. – М.: 1968. – 47 с. Родионова В. Психодиагностика спортивных способностей. – М.: ФиС, 1973. – 110 с. Кочетов А.И. Педагогические основы физической подготовки. – М.: Знание, 1974. – 164 с. Ковалев А.Г. Воспитание характера. – Минск: Народная асвета, 1976, – 126 с. Ашмарин Б.А. Теория и методика педагогических исследований в физическом воспитании. – М.: ФиС, 1978. – 223 с. Тайчинов М.С. Самовоспитание школьников: Книга для учителей. - М.: Просвещение, 1982. – 84 с. Фомин Н.А., Вавилов Ю.Н. Физиологические основы двигательной активности. – М.: ФиС, 1991. – 224 с. Губа В.П., Быков В.А. Технология процесса ускоренного обучения спортивным двигательным действиям (на

Xorijiy davlatlarda, R.Granit, M.H.Frick, R.J.Moffatt, I.I.Joseph, P.M.Ribisi, J.F.Sallis, T.L.Mckenzie, A.Kiloran, T.J.Cooper⁵ va boshqalar suzishning inson hayotidagi ahamiyati bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Jismoniy tayyorgarlik – ta'lim-tarbiya natijasi va uning samaradorligi muhimligiga oid talaygina olimlarning izlanish natijalari L.M. Kulikov, V.I. Xaritonov hamda xorijlik tadqiqotchi R.J. Moffatt ishlarida jismoniy ko'nikmani shakllantirish, darsdan keyingi mashg'ulot jarayonlarini jismoniy tarbiya darslari vaqtidagina emas, balki darsdan tashqari to'garak mashg'ulotlarida bajarish eng to'g'ri yo'l deb topildi.

Mazkur ilmiy - tadqiqot ishlarida, asosan, 9-10 yoshli o'quvchilarni jismoniy sifatlarini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Ammo umumta'lim maktablarining 3-4 sinf o'quvchilari jismoniy sifatlarini shakllantirish muammosi tadqiq qilinmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari muvofiq AI-XT-O-92997 "Yoshlarda umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg'unligi asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash muammolari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi 9-10 yoshli o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini suzish sporti orqali shakllantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

9-10 yoshli o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi mazmun-mohiyatini ta'minlaydigan pedagogik omillarni aniqlash;

umumiy va qo'shimcha ta'lim muassasalarida 9-10 yoshli o'quvchilarga suzishni o'rgatish bo'yicha o'quv jarayonining imkoniyatlarini tavsiflash;

suzishga o'rgatish jarayonida o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini shakllantirishga yordam beruvchi omillar va ularni tahlil qilish;

suzish sporti bilan shug'ullanuvchi 9-10 yoshli qizlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi hamda funksional ko'rsatkichlarini tahlil qilish.

Tadqiqotning obyektini sifatida 9-10 yoshdagi o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini shakllantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Surxondaryo, Navoiy, Buxoro viloyatlarida joylashgan beshta umumta'lim maktablarining 9-10 yoshdagi jami 565 nafar o'quvchilari ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini 9-10 yoshdagi o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini shakllantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

примере плавания) // Теория и практика Ф.К. -№9. 2001. – С. 28-30. Степанов Э.Х., Лузина Л.М., Педагогу о современных подходах и концепциях воспитания. – М.: Сфера, 2002. – 160 с. Барчуков И.С. Физическая культура и физическая подготовка. – М.: Юнити-Дана, 2009. – 432 с.

⁵ Granit R. The basis of motor control. – London and New York: Academic Press, 1970. – 368 p. Frick M.H. Long-term excess physical activity and control haemodynamics in man / M.H. Frick // In: Physical activity and coronary heart disease / eds:V. Manninen, P.I. Halonen. – Basel, New York: Karger, 1976. –Advances in cardiology, Vol. 18. – R. 135-143, – P.167. Moffatt R.J. Placement of triweekly training sessions:importance regarding enhancement of aerobic capacity // R.J. Moffatt, B.A. Stamford, R.D. Neill // Research Quarterly. 1977. Vol. 48 (3). – P. 583-591. Joseph I.I. Cholesterol reduction a long-term intense exercise program // I.I. Joseph, L.L. Bona // J. of Sports Medicine. 1977. Vol. 17 (2). – P. 163-168. Ribisi P.M. Diurnal variation in exercise prescription. In: Abstracts of the 24th annual meeting of the American College / P.M. Ribisi, H.S. Miller, R. Mazzeo // Medicine and Science in Sports. 1989. Vol. 9 (1). – P. 68. Sallis J.F., Mc Kenzie T.L. Physical educations Role in Public Health // Research Quarterly for exerciseand Sport. -№ 62(2). -1991. – P. 124-137. Kiloran A. Moving on international perspectives on promoting physical activity – London, 1995. – 126 p. Cooper T.J. Crossfit Training for Law enforcement. // CrossFit Journal Article. -№ 61. -2007. – P. 7.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda muammoga doir adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil qilish; dinamometriya, kuchlanish dinamografiyasi, elektromiografiya, xronometraj, spidografiya, kuzatish, sotsiometrik metodlar (suhbat, anketa, so'rovnoma, intervyu, test); modellashtirish, pedagogik eksperiment; natijalarni matematik va statistik tahlil etish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

9-10 yoshli suzish sporti bilan shug'illanadigan qizlarda jismoniy sifatlar va maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini rivojlanish dinamikasi, motor reaksiyasining latent davrida qo'l-oyoq harakat chastotasi o'zgarishlari suzish jarayonida "qadam" va tempning yuqori qiymatlarini namoyon qilish qobiliyati takomillashtirilgan;

9-10 yoshli suzish sporti bilan shug'illanadigan qizlarda tezlik qobiliyatining maksimal namoyon bo'lishini ta'minlaydigan optimal vositalar va metodik usullarni tanlash va qo'llash o'larda asosiy dinamik va kinematik xususiyatlarining samaradorligini takomillashtirilgan;

o'quvchilarda jismoniy tayyorgarlikni shakllantirish jarayonining fiziologik va pedagogik xususiyatlari namoyon bo'lish darajalariga ustivorlik berish orqali faoliyatning intellektual (bilish, tushunish, anglash), psixologik (ruhiy salomatlik, hissiy-ekspressiv sifatlarni o'stirish), faoliyatga doir (o'z-o'zini bilish, o'zini o'zi boshqarish va nazorat qilish) hamda ma'naviy-axloqiy (jismoniy tayyorgarlikni o'zlashtirishga niasbatan qadriyatli munosabat va dunyoqarash) kabi tarkibiy komponentlari aniqlashtirilgan;

9-10 yoshdagi o'quvchilarda jismoniy tayyorgarlikni shakllantirishning metodik tizimi qo'shimcha va dinamik ta'lim tamoyillariga ustivorlik berish, ya'ni jismoniy tayyorgarlik samaradorligini belgilaydigan shaxs xususiyatlari (maqsadlilik, ishonchlilik, halollik, mustaqillik, faollik, shaxsning yo'nalganligi), jismoniy tayyorlanish qonuniyatlari (tanani rejalashtirilgan tarzda chiniqtirish, jismoniy tayyorlanishning elementlarini kamol toptirish) bilan sport ta'limining diagnostik, yo'naltiruvchi, prognostik, konstruktiv, loyihalash, tashkiliy-tezkor, nazorat, boshqaruv kabi yo'nalishlarining o'zaro aloqadorligini ta'minlash hamda suzishni o'rgatish usullari (og'zaki, ko'rgazmali, amaliy) va metodlari (parallel, ketma-ket)ning produktivligini oshirish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

9-10 yoshdagi o'quvchilarning suzish sporti bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlashga doir diagnostik vositalar tizimi ishlab chiqilgan;

o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini shakllantirish bilan bog'liqlikda jismoniy tarbiya tizimini takomillashtirish va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

"Suzish nazariyasi va metodikasi" nomli darslik nashr ettirilgan (5112000 - Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun, mualliflik guvohnomasi № 237-309).

"Водные виды спорта" nomli o'quv qo'llanma nashr etilgan (5112000 - Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun, mualliflik guvohnomasi № 388-012).

Tadqiqot natijalarining ishonchligi asosiy metodologik tamoyillarga asoslanganligi, qo‘llanilgan yondashuvlar, usullar va nazariy ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, pedagogik tajriba-sinov ishlarining tahlili va samradorligi matematik-statistik metodlar vositasida asoslanganligi, tadqiqot maqsadi va vazifalarining adekvatligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati o‘quvchilarda jismoniy tayyorgarlikni shakllantirish bilan bog‘liqlikda “jismoniy tarbiya”, “jismoniy tayyorgarlik”, “suzish sporti” kabi tushunchalar mazmunining ilmiy ta‘riflanganligi; o‘quvchilarda jismoniy tayyorgarlikni shakllantirish jarayoniga ta‘sir etuvchi omillar va metodik yondashuvlarning nazariy tahlil etilganligi; suzish sporti bo‘yicha 9-10 yoshli o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajalarini belgilash ko‘rsatkichlari va mezonlarining aniqlashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati o‘quvchilarda jismoniy tayyorgarlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik modelning ishlab chiqilganligi, o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlashga doir diagnostik vositalar tizimi va uslubiy tavsiyalarning ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalaridan umumiy o‘rta ta‘lim maktablari uchun o‘quv dastur, darslik va o‘quv qo‘llanmalarni ishlab chiqishda, “Jismoniy tarbiya” fani bo‘yicha tashkil etiladigan o‘quv jarayonining metodik asoslarini boyitishda, shuningdek, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ta‘lim jarayonida 9-10 yoshli o‘quvchilarda jismoniy tayyorgarlikni shakllantirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

o‘quvchilarda jismoniy tayyorgarlikni shakllantirish jarayonining fiziologik va pedagogik xususiyatlari namoyon bo‘lish darajalariga ustivorlik berish orqali faoliyatning intellektual (bilish, tushunish, anglash), psixologik (ruhiy salomatlik, hissiy-ekspressiv sifatlarni o‘stirish), faoliyatga doir (o‘z-o‘zini bilish, o‘zini o‘zi boshqarish va nazorat qilish) hamda ma‘naviy-axloqiy (jismoniy tayyorgarlikni o‘zlashtirishga niasbatan qadriyatli munosabat va dunyoqarash) kabi tarkibiy komponentlarni aniqlashtirish, shuningdek, 9-10 yoshdagi o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini baholashning quyi (bilimlarning kamligi, ehtiyojning yo‘qligi, harakatlanishda taqlidchanlik), o‘rta (jismoniy tayyorgarlikka oid va jismoniy rivojlanishga nisbatan shaxsiy motiv mavjud, faoliyat usullarini mustqail o‘zlashtirish) va yuqori (nazariy bilim, shaxsiy motiv va ehtiyojning yorqinligi, mustaqil, improvizatsiyali) darajalari suzishni o‘rgatish usullari, bosqichlari hamda shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyatga munosabat shakllarining barqarorligini hisobga olish asosida aniqlashga oid taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi PF-5308-son farmonida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda foydalanilgan (Respublika ta‘lim markazining 2023-yil 8-maydagi 01/11-01/11-325-son ma‘lumotnomasi). Natijada, 9-10 yoshli o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligi, ularga suzishni o‘rgatish jarayonining pedagogik vazifalari asoslangan;

jismoniy tayyorgarlikni shakllantirish usul (ogʻzaki, koʻrgazmali, amaliy) va bosqichlari (boshlangʻich, chuqurlashtirish, takomillashtirish)ning umumiy xarakteristikasini hisobga olish, shuningdek, suzishni zarur hayotiy koʻnikma sifatida oʻzlashtirish, antropometriya, xronometraj, matematik metodlar, modellashtirish kabi tarkibiy qismlarning oʻzaro ichki integratsiyasini taʼminlash orqali 9-10 yoshli oʻquvchilarda suzishga oid jismoniy harakat koʻnikmalarini shakllantirishning tadqiqot modelini ishlab chiqishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan 9-10 yoshdagi oʻquvchilar organizmiga optimal yuklama berish va jismoniy tayyorgarligini baholash asosida dasturiy majmualarni tayyorlash hamda “Водные виды спорта” nomli oʻquv qoʻllanmani shakllantirishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2022-yil 25-noyabrdagi 388-son buyrugʻi; T.N.Qori Niyoziy nomidagi Oʻzbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpogʻiston filialining 2023-yil 31-maydagi 259-son maʼlumotnomasi). Natijada, bolalarning jismoniy xususiyatlari, suzishga oid mashqlar jamlanmasi hamda 9-10 yoshli oʻquvchilarning suzishga boʻlgan ishtiyoq va qiziqishlarining oshishiga xizmat qilgan, shuningdek, umumtaʼlim maktablari 9-10 yoshdagi oʻquvchilarining suzish qobiliyatlari rivojlanishi hamda jismoniy tayyorgarligi takomillashuvi taʼminlangan;

Termiz shahridagi bolalar va oʻsmirlar sport maktabining 9-10 yoshli suzish sporti bilan shugʻillanadigan oʻquvchilari jismoniy va funksional tayyorgarlikni rivojlantirishga qaratilgan darsdan tashkari qoʻshimcha mashgʻulotlarda umumjismoniy va maxsus jismoniy mashqlar oʻquvchilarning biologik yoshini xisobga olgan xolda induviduallashtirib qoʻllangan (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2021-yil 31-maydagi 237-son buyrugʻi; Respublika taʼlim markazining 2023-yil 8-maydagi 01/11-01/11-325-son maʼlumotnomasi). Natijada ularining chaqqonlik sifati 3,6 %, chidamlilik sifati 3,4 %, egiluvchanlik sifati 2,8 %, tezkorlik sifati 3,5 %, kuch sifati 3,2 % ga, umumjismoniy xolati 3% ga, funksional xolati esa 3,2% ga yaxshilangan.

9-10 yoshdagi oʻquvchilarda jismoniy tayyorgarlikni shakllantirishning metodik tizimi qoʻshimcha va dinamik taʼlim tamoyillariga ustivorlik berish, yaʼni jismoniy tayyorgarlik samaradorligini belgilaydigan shaxs xususiyatlari (maqsadlilik, ishonchlilik, halollik, mustaqillik, faollik, shaxsning yoʻnalganligi), jismoniy tayyorlanish qonuniyatlari (tanani rejalashtirilgan tarzda chiniqtirish, jismoniy tayyorlanishning elementlarini kamol toptirish) bilan sport taʼlimining diagnostik, yoʻnaltiruvchi, prognostik, konstruktiv, loyihalash, tashkiliy-tezkor, nazorat, boshqaruv kabi yoʻnalishlarining oʻzaro aloqadorligini taʼminlash hamda suzishni oʻrgatish usullari (ogʻzaki, koʻrgazmali, amaliy) va metodlari (parallel, ketma-ket)ning produktivligini oshirish orqali takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar “Suzish va uni oʻqitish metodikasi” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2021-yil 31-maydagi 237-son buyrugʻi; Respublika taʼlim markazining 2023-yil 8-maydagi 01/11-01/11-325-son maʼlumotnomasi). Natijada, boʻlajak jismoniy tarbiya oʻqituvchilarini oʻquvchilarda jismoniy tayyorgarlikni shakllantirish bilan bogʻliq kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari jami 12 ta, shu jumladan, 9 tasi xalqaro va 3 tasi respublika miqyosidagi konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiyani tayyorlash va himoya qilish jarayonida dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 14 ta ilmiy ish nashr qilingan. Jumladan, 1 ta darslik, 1 ta o'quv qo'llanma, Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan, 7 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan. Dissertatsiya natijalari asosida 1 ta "Suzish nazariyasi va metodikasi" nomli darsligiga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligining mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya uchta bob, xulosa, taklif va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 162 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqot ishining maqsad, vazifalari, ob'ekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlarga mosligi va tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, tadqiqot ishining tuzilishi haqida ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning **"9-10 yoshdagi o'quvchilar jismoniy tayyorgarligini shakllantirishning nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida tarbiya nazariyasi va amaliyotida 9-10 yoshdagi o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini shakllantirishning pedagogik asoslari, ta'lim muassasalarida 9-10 yoshdagi o'quvchilarni suzishga o'rgatishdagi o'quv jarayonining ta'limiy xususiyatlari va imkoniyatlari, qo'shimcha ta'lim muassasalarida 9-10 yoshli o'quvchilarni suzishga o'rgatishda o'quv jarayonining tarbiyaviy salohiyati yoritilgan.

Umumiy va qo'shimcha ta'lim sohasida maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini shakllantirish muammolari bo'yicha ilmiy ishlarning keng ko'lami taqdim etilgan. Turli yosh davrlarida jismoniy tayyorgarlik jarayonini tavsiflovchi umumiy nazariy qoidalar, jismoniy tayyorgarlikning rivojlanish qonuniyati va harakatlantiruvchi omillari va ushbu jarayonni pedagogik tashkil etishning asosiy talablari va shartlari ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga o'smirlik davrida jismoniy tayyorgarlik masalalariga etarlicha e'tibor berilmayotgani qayd etilgan. Umumiy va qo'shimcha ta'lim muassasalarining o'quv yili davomida kuchli omil bo'lgan shaxs rivojlanishi va o'z jismoniy tayyorgarligini shakllantirishga qodir bo'lgan o'smirning jismoniy madaniyatini shakllantirish masalalari to'g'ri aks ettirilmagan. Olimlarning ko'plab tadqiqot ishlari aynan 9-10 yoshda jismoniy tayyorgarlikni to'liq shakllantirish va tarbiyalash mumkinligini e'tirof etadi (B.A. Ashmarin, A.I. Kochetov, L.I. Pogrebnoy, V.A. Suxomlinskiy, V.I. Xaritonov). Qo'shimcha ta'lim

muassasalari o'quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ushbu muammoni eng samarali hal qila oladi.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba-sinovni tashkil qilish va uni o'tkazish usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida, tadqiqotda muammoga doir adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil qilish, dinamometriya, kuchlanish dinamografiyasi, elektromiografiya, xronometraj, spidografiya, kuzatish, sotsiometrik metodlar (suhbat, anketa, so'rovnoma, intervyu, test), modellashtirish, pedagogik eksperiment, natijalarni matematik va statistik tahlil etish kabi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tajriba-sinov ishlari quyidagi uch bosqichda amalga oshirilgan.

Asoslovchi tajriba bosqichida o'quvchilarda suzish bilan bog'liq jismoniy ko'nikmalarni rivojlanganlik darajasining mavjud holatini aniqlashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat tashkil etildi. Ko'zda tutilgan maqsadga erishishda umumiy o'rta ta'lim maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilarning faoliyatini pedagogik kuzatish, suhbat, anketa so'rovlari, shuningdek, o'quv va ma'naviy-ma'rifiy ishlar mohiyatini yorituvchi hujjatlarni o'rganish kabi metodlardan foydalanildi. Bularning barchasi tadqiqotning asosiy yo'nalishi va dasturini muayyan darajada aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot mavzusiga oid yetakchi olimlar, pedagoglarning ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil qilingan.

Shakllantiruvchi tajriba bosqichida suzish bilan bog'liq jismoniy tayyorgarlik ko'nikmalarini rivojlantirishning tadqiqot modeli hamda mazkur model asosida ishlab chiqilgan maxsus kurs-dasturlariga binoan ta'limiy tajriba-sinov ishlari olib borildi. Bunda maktab o'qituvchilari va o'quvchilar faoliyatini bevosita va bilvosita pedagogik kuzatish, ular ishtirokida jismoniy mashqlarni bajarish, hamkorlikda o'qitish, o'z-o'zini baholash kabi metodlar yordamida o'quvchilarda jismoniy ko'nikmalarni rivojlantirishga katta ahamiyat qaratildi. Nazariy tadqiqotlar natijasida aniqlangan ilmiy yechimlar modulli ishlanmalar yaratishda amaliy qo'llanildi hamda ular asosida ta'limiy tajriba-sinov mashg'ulotlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlarining ikkinchi bosqichida amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlar qatorida jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot modelining mazmuni takomillashtirildi.

Tajriba-sinov ishlarining birinchi (2020-2021) – asoslovchi tadqiqot bosqichida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

o'quvchilarda suzish bilan bog'liq jismoniy ko'nikmalar rivojlanganligining mavjud holatini tashxis etish;

o'quvchilarda suzish bilan bog'liq jismoniy ko'nikmalarni rivojlantirishning o'quv-metodik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

o'quv jarayoni natijalari asosida o'quvchilarda suzish bilan bog'liq jismoniy ko'nikmalarni rivojlantirishdagi muammolarni aniqlash va ularni tahlil qilish.

Asoslovchi tadqiqotni o'tkazishda umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fanining o'qitilishi hamda mazkur fanga oid bilimlarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilish darajasiga, shuningdek, ularning guruhdan tashqari amaliy faoliyat turlari mazmuniga e'tibor qaratildi. Chunki ushbu jarayonlar o'quvchilarda ma'lum darajada jismoniy tayyorgarlikka oid ko'nikmalarning rivojlanganligi haqidagi tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi.

Tajriba-sinov ishlari ishlab chiqilgan tadqiqot dasturi asosida olib borildi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari asosan 2020–2022-yillarda tashkil etilib, tadqiqot maqsadi umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 3-4 sinf oʻquvchilarida jismoniy tayyorgarlikni shakllantirish jarayoni belgilandi. Tajriba-sinov ishlarida Buxoro, Navoiy, Surxondaryo viloyatlarida joylashgan umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 3-4-guruh oʻquvchilaridan jami 565 nafari ishtirok etdi. Shundan 278 nafari tajriba guruhiga, 287 nafari nazorat guruhiga biriktirildi.

Tajriba tadqiqot maʼlumotlarini qayta ishlash va tahlil qilishda matematik statistika usullaridan foydalanildi. Matematik statistikaning maxsus adabiyotlarda yoritilgan umumiy qabul qilingan metodlari qoʻllanildi.


Quyidagilar hisoblab chiqarildi: - oʻrtacha qiymat (\bar{X}); - oʻrtacha standart ogʻish (σ); - variatsiya koeffitsienti (V); - umumiy tekshirilayotgan guruhlarda tanlangan oʻrtacha qiymatlarning farqlar ishonchliligini aniqlash uchun Student t-mezeni qoʻllanildi.

Ikkala yosh guruhlari oʻrtasidagi koʻrsatkichlarining oʻrtacha qiymatlari farqlarining ishonchliligini baholash uchun Studentning T-mezeni qoʻllanildi.

Har bir oʻrganilayotgan yosh guruhida tezlik tuzilmasining omili imkoniyatlari tahlil qilindi. Yuklamalarining koʻrsatkichlarni baholashda 1% ahamiyatlilik darajasi qabul qilindi. Tahlil standart dasturlar boʻyicha “Pentimn-100” kompyuterida oʻtkazildi.

Dissertatsiyaning **“Suzish sporti bilan shugʻullanuvchi 9-10 yoshli qizlarning jismoniy tayyorgarligini shakllantirish metodikasi”** deb nomlangan uchunchi bobida suzish bilan shugʻullanadigan 9-10 yoshli oʻquvchilarda jismoniy tayyorgarlikni tahlil qilish va tavsiflash, jismoniy tarbiya yoʻnalishidagi taʼlim muassasalarining oʻquv jarayonida 9-10 yoshli oʻquvchilarni jismoniy tayyorgarligini shakllantirish boʻyicha taklif va tavsiyalar, suzish sporti bilan shugʻullanuvchi 9-10 yoshli qizlarning suzish texnikasini oʻrgatish va takomillashtirish metodikasi haqida ilmiy fikrlar yoritib oʻtilgan.

9-10 yoshdagi oʻquvchilarni suzishga oʻrgatishning oʻquv jarayoni pedagogik tizim sifatida koʻrib chiqilib, uning suzishni oʻrgatish tizimini belgilovchi asosiy bloklari: diagnostik, yoʻnaltiruvchi va prognostik, konstruktiv va loyihalash, tashkiliy-faoliyat va nazorat, boshqaruv bloklari kiritilgan. Suzish mashgʻulotlarida 9-10 yoshli oʻquvchilarning jismoniy oʻzini oʻzi tarbiyalashga tayyorligini shakllantirish uchun oʻquv jarayoni texnologiyasining ishlashi pedagogik tizimning barcha bloklarini ularning oʻziga xos munosabatlari va organik oʻzaro taʼsirida izchil amalga oshirish bilan taʼminlandi (1-rasm).



1-rasm. 9-10 yoshdagi o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini shakllantirish jarayonining tadqiqot modeli

Taklif etilayotgan eksperimental dastur jismoniy tarbiya va sport birlashmalari, ta'lim muassasalarida o'quv jarayonining an'anaviy tuzilishi bilan bir qatorda jiddiy farqlarga ega edi. Ular bilimlarning o'zgaruvchanligini ta'minlash, maxsus bilimlar tizimiga jalb qilinganlarni qurollantirish, zaruriy bilim va mustaqil ta'lim metodologiyasini o'rgatish, jismoniy tayyorgarlikni tarbiyalashga munosabatni shakllantirishdan iborat edi. Yosh o'smirlar bilan maxsus ishlab chiqilgan mavzularda ma'ruzalar, suhbatlar o'tkazildi, mustaqil ta'lim ko'nikmalariga o'rgatildi. "O'zingni tekshir" jismoniy tayyorgarligi darajasini tekshirish metodikasi, o'zini nazorat qilish kundaliklarini yuritish, o'quvchilarning o'zini nazorat qila bilish ko'nikmalarini puxta egallashga, kelgusida mustaqil foydalanishga imkon berdi. Eksperimental guruhlardagi mashg'ulotlar umumiy jismoniy, nazariy, suzish mashg'ulotlari bo'limlarini o'z ichiga oldi.

Dissertatsiyaning "9-10 yoshli suzish sporti bilan shug'illanadigan qizlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan dasturning samaradorligini tajribada asoslash hamda uning matematik statistik tahlili" deb nomlangan to'rtinchi bobida suzish usullarini o'rgatish metodikasini takomillashtirishda maxsus mashqlardan foydalanishni pedagogik asoslash, 9-10 yoshli suzish sporti bilan shug'illanadigan qizlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi natijalarining shakllanish dinamikasining pedagogik tahlili, pedagogik tajriba yakunida tajriba va nazorat guruhi suzuvchi qizlarining jismoniy va texnik tayyorgarlik ko'rsatkichlarining qiyosiy statistik tahlili qayd etilgan.

Pedagogik tajriba-sinov biz tomonimizdan ishlab chiqilgan Termiz shahridagi bolalar sport maktabining suzish havzasida bolalarni suzishga o'rgatish maqsadida kichik yoshdagi o'smirlarning jismoniy tayyorgarligini shakllantirishga qaratilgan eksperimental dasturga muvofiq tashkil etildi. Ushbu dasturning asosiy qoidalari quyidagilar bo'ldi:

yosh o'smirlarning jismoniy madaniyatini shakllantirishda asosiy omil sifatida jismoniy tarbiya bilan o'zaro aloqada jismoniy tayyorgarlikni shakllantirish imkoniyatlarini organik ravishda o'z ichiga olgan dastur mazmunining nazariy qismini dolzarblashtirish;

har bir o'quvchi shaxsining ma'naviy va axloqiy qadriyatlariga e'tiborni kuchaytirishda ifodalangan o'quv jarayonini insonparvarlashtirish, uning jismoniy tarbiyaga bo'lgan ichki ehtiyojlarini jismoniy madaniyat va jismoniy tarbiya qadriyatlari orqali yangilash va amalga oshirish, bolaning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligi sohasidagi o'z maqsadini belgilash;

o'quv va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda jismoniy tarbiya va sport orqali yosh o'smirlarning jismoniy tayyorgarligini shakllantirishdagi faolligini rag'batlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish.

Pedagogik tajriba sinov davomida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan dasturning samaradorligini aniqlash maqsadida dastlabki sinov testlari o'quv yili boshida sentyabr oyida va yakuniy testlar o'quv yil oxiri iyun oyining birinchi yarmida o'tkazildi. Testlar, asosan, suzish mashg'ulotlari jarayonida o'tkazildi. Yuklamali mashqlar yengil chigalyozdi mashqlaridan keyin amalga oshirildi. TGda esa biz tomonimizdan ishlab chiqilgan metodika bo'yicha, NGda esa bolalar va o'smirlar sport maktablari uchun mo'ljallangan an'anaviy suzish mashg'ulotlari dasturdan kelib chiqib olib borildi.

TG 9 yoshli suzish sporti bilan shug'illanuvchi qizlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligining pedagogik tajribaning boshida va yakunidagi test sinov natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadvalda TGdagi 9 yoshli sportchi qizlarning pedagogik tajribaning boshida va yakunidagi umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlarining tahlili berilgan bo'lib, bunda, umumiy jismoniy tayyorgarlikni aniqlash bo'yicha qo'llanilgan testlarning natijalari: 30 m. masofaga yugurish bo'yicha natija tajriba boshida $6,1 \pm 0,6$ soniyani, tajriba yakunida esa $5,2 \pm 0,7$ s.ni, variatsiya koefitsenti esa $V=9,8\%$, tashkil qildi ($t=3,7$; $P<0,01$) va ishonchli statistik farqlar aniqlandi.

1-jadval

Pedagogik tajriba boshida va yakunida tajriba guruhidagi 9 yoshli suzish sporti bilan shug'illanuvchi qizlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligining test sinov ko'satkillar tahlili

T/r	Testlar	Tajriba boshida n=15		Tajriba yakunida n=15		t	P
		$\bar{X} \pm \sigma$	V%	$\bar{X} \pm \sigma$	V%		
Umumiy jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari							
1.	30 m masofaga yugurish, s.	6,65±1,02	9,8	6,10±1,4	12,1	3,7	<0,01
2.	Joydan turib uzunlikka sakrash, sm.	129,6±15,6	10,2	135,20±11,3	10,5	4,1	<0,01
3.	Joydan turib o'ng qo'lda basketbol to'pini uloqtirish, m.	4,95±0,2	9,8	6,10±0,6	13,7	5,8	<0,005
4.	Joydan turib chap qo'lda basketbol to'pini uloqtirish, m.	4,33±1,7	13,8	5,91±1,4	13,1	4,3	<0,05
5.	3×10 metr masofaga mokismon yugurish s.	10,87±1,1	11,9	9,72±1,3	10,4	4,7	<0,01

Maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari							
6.	Qo'llarni to'g'ri tutgan xolda maksimal tezlikda oldinga aylantirish, (10 s. davomida)	6,8±1,0	13,7	10,5±0,7	11,5	3,4	<0,05
7.	Qo'llarni to'g'ri tutgan xolda maksimal tezlikda orqaga aylantirish, (10 s. davomida)	6,1±1,1	12,3	9,7±1,2	10,2	4,2	<0,05
8.	Rezina amortizator bilan qo'llarni to'g'ri tutgan xolda maksimal tezlikda oldinga aylantirish, (10 s. davomida)	5,9±0,9	12,6	7,3±0,8	10,9	4,4	<0,01
9.	Rezina amortizator bilan qo'llarni to'g'ri tutgan xolda maksimal tezlikda orqaga aylantirish, (10 s. marta)	5,2±1,4	11,9	6,4±1,5	11,4	3,1	<0,05
10.	Gimnastik o'rindiqqa o'tirgan xolda qo'llarga tayanib, tizzalarni bukmasdan oyoqlarni harakatlantirish (10 s. marta)	13,8±0,5	13,1	16,6±1,3	13,9	3,1	<0,05

Joydan turib uzunlikka sakrash bo'yicha natija tajriba boshida 129,6±15,6 sm. ni, tajriba yakunida esa 135,2±11,3 sm. ni, variatsiya koefitsenti esa V-10,5 %, tashkil qildi (t=4,1; P<0,01). Joydan turib o'ng qo'lda basketbol to'pini uloqtirish bo'yicha natija tajriba boshida 4,95±0,2 m. ni, variatsiya koefitsenti esa V-9,8%, tajriba yakunida esa 6,10±0,6 m. ni, V-13,7 % tashkil qildi (t=5,8; P<0,005). Qolgan test bo'yicha natijalarda ham ijobiy o'sish kuzatildi.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik bo'yicha olingan test natijalarining ko'rsatkichlar. Xususan, tajriba boshida qo'llarni to'g'ri tutgan xolda maksimal tezlikda oldinga aylantirish 6,8±1,0-martani, V-13,7 % ni, tajriba oxirida esa 10,5±0,7-martani, V-11,5 % ni tashkil qildi (t=3,4; P<0,01). Qo'llarni to'g'ri tutgan xolda maksimal tezlikda orqaga aylantirish, (10 s. davomida) bo'yicha tajriba boshidagi natijalar 6,1±1,1-martani, V-12,3 % ni, tajriba yakunida esa 9,7±1,2-martani, variatsiya koefitsenti esa V-10,2 % ni, (t=4,2; P<0,05) tashkil qildi. Maxsus jismoniy tayyorgarlik testlari bo'yicha ham, tajriba boshida va oxirida ishonchli statistik farqlar aniqlandi. Demak, biz tomonimizdan qo'llanilgan metodika samarador ekanligini isbotladi.

Tajriba guruhi 10 yoshli suzish sporti bilan shug'illanuvchi qizlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligining pedagogik tajribaning boshida va yakunidagi test sinov natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Pedagogik tadqiqot boshida va yakunida tajriba guruhidagi 10 yoshli suzish sporti bilan shug'illanuvchi qizlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligining ko'satkillar tahlili

T/r	Testlar	Tajriba boshida n=15		Tajriba akunida n=15		t	P
		$\bar{X}\pm\sigma$	V%	$\bar{X}\pm\sigma$	V%		
Umumiy jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari							
1.	30 m masofaga yugurish, s.	6,45±0,79	11,3	6,10±1,1	12,1	4,5	<0,01
2.	Joydan turib uzunlikka sakrash, sm.	135,2±7,7	12,94	144,9±9,2	13,4	5,3	<0,001
3.	Joydan turib o'ng qo'lda basketbol to'pini uloqtirish, m.	5,20±1,1	10,61	5,70±1,9	7,6	3,2	<0,01

4.	Joydan turib chap qo'lda basketbol to'pini uloqtirish, m.	4,61±0,6	9,10	5,10±1,8	11,6	3,6	<0,01
5.	3×10 metr masofaga mokismon yugurish s.	10,12±0,4	13,7	9,50±0,5	13,2	4,4	<0,01
Maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlar							
6.	Qo'llarni to'g'ri tutgan holda maksimal tezlikda oldinga aylantirish, (10 s. davomida)	7,3±0,4	14,32	8,9±1,7	14,7	4,1	<0,01
7.	Qo'llarni to'g'ri tutgan holda maksimal tezlikda orqaga aylantirish, (10 s. davomida)	6,9±0,6	8,95	7,3±1,4	13,2	5,7	<0,001
8.	Rezina amortizator bilan qo'llarni to'g'ri tutgan holda maksimal tezlikda oldinga aylantirish, (10 s. davomida)	6,8±0,8	9,83	7,1±1,9	12,1	4,3	<0,01
9.	Rezina amortizator bilan qo'llarni to'g'ri tutgan holda maksimal tezlikda orqaga aylantirish, (10 s. marta)	6,1±1,5	11,4	6,6±1,3	10,8	3,5	<0,01
10.	Gimnastik o'rindiqqa o'tirgan holda qo'llarga tayanib, tizzalarni bukmasdan oyoqlarni harakatlantirish (10 s. marta)	15,1±0,5	12,1	16,8±0,8	11,4	4,7	<0,01

2-jadvalda TGdagi 10 yoshli suzish sporti bilan shug'illanuvchi qizlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligining pedagogik tajribaning boshida va yakunidagi umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlarining tahlili berilgan, chunonchi, umumiy jismoniy tayyorgarlikni aniqlash bo'yicha qo'llanilgan 30 m. masofaga yugurish bo'yicha natija tajriba boshida $6,45 \pm 0,79$ s.ni, variatsiya koefitsenti V-11,3 % ni, tajriba yakunida esa $6,10 \pm 1,1$ s.ni, V-12,1 % bo'lib ($t=4,5$; $P<0,01$) statistik farqlarning ishonchli aniqlandi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik testlarining qolganlarida ham ko'rsatkichlarning o'sishiga erishilgan. Masalan, 3- test bo'yicha $5,20 \pm 1,1$ -martani, V-10,61 % ni, tajriba yakunida $5,70 \pm 1,9$ -martani, V-7,6 % ni tashkil qildi ($t=3,2$; $P<0,001$). 4- test bo'yicha $4,61 \pm 0,6$ -martani, V-9,10 % ni, tajriba yakunida $5,10 \pm 1,8$ -martani, V-11,6 % bo'lib ($t=3,6$; $P<0,001$) ni tashkil qildi 5-test 3×10 metr masofaga mokismon yugurish bo'yicha $10,12 \pm 0,4$ s.ni, V-14,32 % ni, tajriba yakunida $8,9 \pm 1,7$ s.ni, V-14,7 % bo'lib ($t=3,2$; $P<0,001$) ni tashkil qildi. Demak, umumiy jismoniy tayyorgarlik testlari bo'yicha, tajriba boshida va yakunidagi natijalarda ishonchli statistik farqlar aniqlandi.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari. Chunonchi, tajriba boshida qo'llarni to'g'ri tutgan xolda maksimal tezlikda oldinga aylantirish $7,3 \pm 0,4$ -martani, V-14,3 % ni, tajriba oxirida esa $8,9 \pm 1,7$ -martani, V-14,7% ni tashkil qildi ($t=4,1$; $P<0,01$). Qo'llarni to'g'ri tutgan xolda maksimal tezlikda orqaga aylantirish, bo'yicha tajriba boshidagi natijalar $6,9 \pm 0,6$ -martani, V-8,95 % ni, tajriba yakunida esa $7,3 \pm 1,4$ -martani, variatsiya koefitsenti esa V-13,2 % ni, tashkil qildi. 8- test bo'yicha $6,8 \pm 0,8$; V-9,83 %; $7,1 \pm 1,9$; V-12,1; V-8,95 % ni, tajriba yakunida esa $7,3 \pm 1,4$ martani, variatsiya koefitsenti esa V-13,2 % ni, tashkil qildi. 8- test bo'yicha $6,8 \pm 0,8$; V-9,83 %; $7,1 \pm 1,9$; V-12,1; ($t=4,3$; $P<0,001$). 9-test bo'yicha $6,1 \pm 1,5$; V-11,4 %; $6,6 \pm 1,3$; V-10,8; ($t=3,5$; $P<0,001$). 10-test bo'yicha $15,1 \pm 0,5$; V-12,1 %; $16,8 \pm 0,8$; V-11,4; ($t=4,7$; $P<0,001$) qayd etildi. Maxsus jismoniy tayyorgarlik testlari bo'yicha

ham, tajriba boshida va oxirida ishonchli statistik farqlar aniqlandi. Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikda ham yuqori ishonchli statistik farqlar aniqlandi. Bu, biz tomonimizdan qo'llanilgan metodikasi o'z samarador ekanligidan dalolat beradi.

